

**PROFESSIONAL FUTBOLNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING HUQUQIY
AHAMIYATI**

Ibrohimxonov Oybekxon Musaxonovich

O'zbekiston professional futbol ligase yuristkonsulti, huquq magistri
oybekibrohimxonov84@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan professional futbol va klublar faoliyati, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari, shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy ahamiyatlari yoritilgan. Birgina misol O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-son Farmoni, 2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-115-sonli Qarorida belgilangan kafolatlar va imtiyozlarni keltirib o'tilgan.

Klublarning faoliyatiga oid hujjatlar, shunigdek, professional futbolni har tomonlama rivojlantirishga maqola oxirida takliflar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: futbol, ommaviy futbol, professional futbol, professional futbol musobaqasi, professional futbol klubi, Professional futbol ligasi, normativ-huquqiy hujjat, nodavlat-notijorat tashkilot, mas'uliyati cheklangan jamiyat, professional futbolning huquqiy ahamiyati.

Mamlakatimizda futbolning ommaviyligini yanada oshirish, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash hamda professional darajada tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish, trener va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va mahoratini yuksaltirish, futbol infratuzilmasini yaxshilash hamda o'rnatilgan standartlarga moslashtirish yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi islohotlarning bosh ijrochisi sifatida, eng avvalo davlatimiz tomonidan sportning ommaviy turlaridan professional futbolga keng e'tibor berayotganini, shuningdek, ikkinchi tomondan homiy tashkilotlarning ko'rsatayotgan beg'araz yordamlarini ko'rishimiz mumkin. Albatta bularning tag tomirida mamlakatimizda shu sohaga qaratilayotgan islohotlar natijasi va unga berilayotgan e'tiborni ta'kidlash mumkin.

Aslida, biz so'z yuritayotgan professional futbol o'zi nima, buning qandaydir huquqiy belgisi yoki ahamiyati nimada..., U nodavlat tashkilot yoki davlat tashkiloti tomonidan tartibga solinadimi..? Bu savolni ham albatta ta'kidlab o'tish joiz.

Biz, har doim biror sport turiga oid rasmiy professional so'zini qo'shib gapirishga harakat qilamiz yoki shu so'zni qo'shib ishlatamiz. Aslida esa bu ham sportning turi sifatida qaralib, futbolga xos ishlatiladigan tushuncha ekanligi, uni xalqaro sport turi sifatida rivojlantirish, ommalashtirish maqsadida ham shu atama muomalada keng qo'llanilib kelinadi.

Mazkur maqolani tahlil etishda futbol, ommaviy futbol, professional futbol, professional futbol musobaqasi, professional futbol klubi, professional futbol ligasi, normativ-huquqiy hujjat, nodavlat-notijorat tashkilot, mas'uliyati cheklangan jamiyat, professional futbolning huquqiy ahamiyati ilmiy tushuncha sifatida amaldagi qonunchilik manbalari tahlil qilindi, ba'zi rossiyalik olimlarning ilmiy maqolalari o'rganildi.

Shuningdek, tahlil jarayonida mualliflik mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, qonunchilikni rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar ilgari surildi. Ushbu ilmiy maqolani olib borishda tahlil, qiyosiy, tizimlilik va umumiylilik metodlaridan samarali foydalanildi.

Professional futbolni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritishda shu kunga qadar birorta ilmiy-mustaqlis ish amalga oshirilmaganligini ko'rish mumkin. Ba'zi huquqshunos olimlar ushbu sport turini ayrim yo'naliishlarida ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Masalan, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori Sh.A.Xodjimurotovning "Legal significance of employment contracts of professional football players" ("Professional futbolchilar mehnat shartnomalarining huquqiy ahamiyati") [1], S.A. Tukmanovning "Features of the labor law status of a professional football player, candidate of legal sciences dissertation, available online at" kabi ilmiy izlanishlarida faqatgina mehnat munosabatlarini ko'rish mumkin bo'ladi.

Qonunchilik manbalariga ham havola qiladigan bo'lsak [2], professional futbol yoki professional futbol klubi va professional futbol ligasi haqida ma'lumotlar uchrasada, ammo atama, tushuncha sifatida kelmaydi. Ammo, Xalqaro Futbol Assotsiatsiyalari Federatsiyasi (ФИФА), Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK), O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, O'zbekiston Professional futbol ligasining bir so'z bilan aytganda, nizomlari, reglamentlarida va bir qator qarorlarida "professional futbol", "professional futbol klubi" va "professional futbol ligasi" bilan bog'liq terminlarini uchratish yoki ushbu atamaga katta urg'u berilganini ko'rish mumkin. Professional futbol -ommaviy futbolni tashkil etuvchi, mamlakatda, o'ziga mos va xos professional futbol ligasi yoki shunga o'xshah maqomga ega bo'lgan nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan musobaqa sifatida o'tkaziladigan mahalliy miqyosdagi professional futbol o'yinidir. O'zbekiston Professional futbol ligasi esa nodavlat notijorat tashkiloti sifatida Adliya vazirligidan ro'yhatdan o'tgan mamlakat futbol assotsiatsiyasiga tarkibiy tuzilmasida yuqorida professional futbol o'yinlarni tegishli musobaqalarni o'tkazish reglamentiga amal qilgan holda tashkil qiluvchi nodavlat tashkilot hisoblansa, mazkur tashkilot tomonidan biz boshidan beri fikr yuritayotgan professional futbol klubi -Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK)ni litsenziyasini qo'lga kiritgan tijoratchi futbol klubi hisoblanishi qayd etilgan. Ya'ni, professional futbol klubi sifatida tan olinishinig asosiy sharti OFK tomonidan har yili o'tkaziladigan litsenziyalash jarayonidan muvaffaqiyatli o'tishidir. OFKning litsenziyalash talablarini bajarish orqali professional futbol klubi o'zinig ma'muriy, kadrlar tizimi, infratuzilmasi, moddiy texnika bazasi, futbolchilar zahirasini shakllantirish, ayollar futboli, turli yosh toifasidagi jamoalarini tashkil etish va boshqa faoliyatlarini rivojlantirishga intiladi.

Professional futbol klubi huquqiy maqomiga ega bo'lishning ahamiyati shundaki, bunda aynan professional futbol klubi uchun davlat tomonidan soliq va bojhona imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining [3] 483-moddasi qirq birinchi va qirq ikkinchi qismlariga muvofiq boshqa futbol sohasi subyektlari bilan birgalikda professional futbol klublariga ham soliq imtiyozlari belgilangan. Shuningdek, 2023-yil 7-aprelda qabul qilingan PQ-115-sonli [4] Qarori 15-bandiga muvofiq professional futbol klublariga bojhona imtiyozlari belgilangan.

Shu yerda bir narsaga alohida urg'u berish kerakki, nodavlat notijorat tashkilot hisoblanuvchi O'zbekiston professional futbol ligasi O'zbekiston Respublikasi hududida futbol jamoalari o'rtasida futbol bo'yicha tegishli ravishda Superliga, Pro liga, Birinchi liga, futzal Oliy ligasi va Birinchi ligasi, O'zbekiston Kubogi, Liga Kubogi, O'zbekiston Superkubogi, O'zbekiston U-18 championatidan boshlab O'zbekiston U-23 championatigacha bo'lgan barcha yosh toifalaridagi va boshqa shu kabi professional futbol musobaqalari o'tkazishni muvofiqlashtirish, professional futbol klublari o'rtasida professional

musobaqalari tashkil etish va o'tkazish, ularning sport va tashkiliy-boshqaruv faoliyati hamda o'zaro munosabatlari bo'yicha yo'l-yo'riq berib boruvchi tashkilot hisoblansa-da, uning qatnashchilari bo'lgan mahalliy klublar esa FIFA, OFK rahbar organlari tomonidan belgilangan tartiblar bilan birlashtirilgan faoliyatini fuqarolik qonunchiligidagi [5] ko'zda tutilgan tijoriy maqsadlarga mo'ljallangan faoliyatni ko'zlash maqsadida tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlardir [6]. Masalaning shu sohaga e'tibor berilishini huquqiy ahamiyati ham shunda...

Mustaqillik yillardan tortib, to shu kunga qadar professional o'zbek futbolida misli ko'rilmagan islohotlarni ko'rish mumkin. Birgina misol, sohani nodavlatliligin etiborga olsak, shak-shbhasiz, bu islohotlarni yuqorida ta'kidlanganidek, 2 turini keltirib o'tish joizdir: ommaviy sport sifatida uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ahamiyati yoki nodavlat tashkilot sifatida esa xalqaro miqyosdagi tashkilotlarning beg'araz yordami ham e'tirof etilishi [7].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ko'ra [8], nodavlat notijarat tashkilotlari [9] ham boshqalar kabi fuqarolik jamiyatlari institutini tashkil etishligi belgilangan. Ammo, to'liq zamonaviy futbol sohasi to'liq mamlakatimizda huquqiy jihatdan rivojlanish cho'qqisiga intilish jarayonida ular faoliyatiga tadbirkorlik subyektlarini jalb etib, har taraflama rivojlantirib borishga harakat qilinmoqda. Bu esa o'z-o'zidan zamonaviy futbolni tashkil qiluvchi professional futbol va uning klublari amalda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganini anglatadi. Shunisi e'tiborliki, ularning musobaqalarini tashkil etuvchi -O'zbekiston professional futbol ligasi esa nodavlat tashkilot sifatida olib boradi, ya'ni o'z faoliyatini Adliya vazirligidan ro'yhatdan o'tkazib, Ustav asosida faoliyat olib boradi. Demak, biz ta'bir joiz bilan aytgan, masalani ham huquqiy ahamiyati ham shu. Davlat tomonidan nodavlat tashkilotlarning qo'llab-quvvatlashi, ya'ni tegishli musobaqalarni tashkil etish uchun sharoitlarni yaratiltishidir. Bu Asosiy qomusimizda ham mustahkamlanganlidir.

So'nggi yillarda ham professional futbol va klublar faoliyatini rivojlantirishga doir davlat rahbarining va hukumatning hujjatlari qabul qilindi. Birgina misol, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-sonli Farmonida [10] salohiyati yuqori futbolchilarni professional darajada tayyorlash, ularni xorijiy davlatlarning nufuzli futbol klublarida professional faoliyat olib borishini ta'minlash, shuningdek, futbolchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida "futbol bo'yicha agentlar" (vositachilar) professional faoliyatini yo'lga qo'yish zarurligi alohida qayd etib o'tilgan. Shuningdek, 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-sonli Qarorida [11] esa yoshlarning futbolga qiziqishini oshirish, bu boradagi targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish, ularning futbol bilan shug'ullanishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish, terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini yaratish, iqtidorli futbolchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya)ning raqamlashtirilgan tizimini joriy qilish kabi vazifalar belgilab o'tilganligi sport sohasining boshqaruvi davlatimiz oldida turgan eng muhim yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rish mumkin.

Xulosa o'rnida, so'nggi yillarda davlat va hokumat tomonidan sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida 2018-yil 5-martdag'i PF-5368-sonli [12], 2018-yil 16-martdag'i PQ-3610-sonli [13], 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-sonli Farmoni [14], 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-sonli [15], 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-sonli [16], 2022-yil 28-yanvardagi PF-30-sonli [17], 2022-yil 11-apreldagi PQ-201-sonli [18], 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-sonli [19] va 2022-yil 4-iyuldag'i VMQ-355-sonli [20] 2023-yil 9-sentabrdagi VMQ-458-sonli [21] Qarorlarini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi qabul qilinayotgan normativ-hujjatlarning barchasi professional futbol sohasini keng ommalashtirish, nufuzi oshirish va xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lish majburiyat yuklaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish kerakki, davlat tomonidan shu kunga qadar professional futbolni rivojlantirishda faqatgina ichki imkoniyatlarni resurs orqali ta'minlash bilangina cheklanganligini ko'rish mumkin. Taklif shuki, mahalliy professional klublarni xalqaro miqyosda rivojlantirishda chet el tajribasini yaxshi va yetaricha huquqiy jihatdan tahlil qilib, so'ngra amaliyotga joriy etish kerak. Bunda korporativ boshqaruvni ham keng joriy etish kerak.

Yana shuningdek, davlat va hukumat tomonidan mahalliy va xorijiy transferlar bozorida o'zbek futbol yulduzlarini o'rnini topishda yoki jahon yulduzları qatorida raqobatlashishi uchun, biz ularga davlatning yoki hukumatning ularning moddiy qo'llab-quvvatlashini o'zi yetarli emasligini ko'rishimiz, tushunishimiz kerak. Shaxsiy qobiliyat va o'sish va sog'lom raqobatga kirishish uchun, har bir sport vakili doim o'z ustida muntazam ishlashi ham kerak. Chunki, davlat sportni rivojlantirishi bilan faqat ushbu sohani yuksaltirishi mumkin, ammo sportchi bu yo'nalishda muntazamlikni yo'qotsa yoki dangasalikka yo'l qo'ysa, shu uning oxirgi kuni bo'lishi mumkin.

Davlat tomonidan berilayotgan va ko'rsatiloyatgan huquqiy va moddiy yordamlarni doimo ezgu maqsadlari uchun ishlatishlari va davlatning Asosiy qomusimizda kafolatlangan vazifalari deb qabul qilinishi kelgusida mamlakatimizda futbolni yanada rivojlantirishdan ko'zlangan maqsadlarga erishilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Sh.A.Xodjimurotov "Legal significance of employment contracts of professional football players" ("Professional futbolchilar mehnat shartnomalarining huquqiy ahamiyati") mavzusidagi yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. TDYuU kutubxonasi. 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-soni Farmoni. <https://lex.uz/docs/4631208>.
3. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30.12.2019. <https://old.lex.uz/docs/4674902#5136098>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-117-soni Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6426271>
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism. 21.12.1995. <https://lex.uz/docs/-111189#-151286>
6. O'zbekiston Respublikasining 2001-yildagi "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-310-II-soni. <https://lex.uz/docs/-22525>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-oktabrdagi "Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy foydali dasturlar va loyihalar amalga oshirilishida ijtimoiy sheriklik hamda xalqaro hamkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 523-soni Qarori. <https://lex.uz/docs/-6627539>
8. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. XIII bob. Fuqarolik jamiyati instittlari. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. <https://lex.uz/docs/6445145>

9. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-14.04.1999. <https://lex.uz/docs/-11360?ONDATE=11.09.2019>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-son Farmoni.. <https://lex.uz/docs/4631208>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-117-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6426271>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3578121>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martda qabul qilingan "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3610-son Qarori. <https://lex.uz/docs/3589863>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi sonli "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5887-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4631208>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi sonli "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stribol va "workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5282-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5713367>
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-30-son Farmon bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 67-Maqсади. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-201-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5950242>
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-sonli "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori; <https://lex.uz/docs/6426271>
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-son Qarori; <https://lex.uz/docs/6652964>
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-sentabrdagi "O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tizimidagi futbol akademiyalari va futbol maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 458-son Qarori. <https://lex.uz/docs/6602590>
22. <https://pfl.uz/uzb/news/detail/16286>.